

FONETIKA BO'LIMINI O'QITISHNING ZAMONAVIY USULLARI

Yuldosheva Begoyim

NavDPI o'zbek tili adabiyoti fakulteti 3-kurs talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10429323>

Annotatsiya. Mazkur maqolada fonetika bo'limi haqida umumiy ma'lumotlar berilgan. Fonetika bo'limini o'qitishning maqsad va vazifalar yoritib berilgan. Mavzuni o'quvchilarga o'rgatishda interfaol metodlardan foydalanish o'quvchilarning mustaqil fikrlash va yangicha yondashishga yordam berishi haqida fikr bildirilgan.

Kalit so'zlar: Fonetika, tovush, bo'g'in, urg'u, unli tovushlar, tilning gorizontol holati, "Venn diagrammasi", "Klaster".

MODERN METHODS OF TEACHING THE DEPARTMENT OF PHONETICS

Abstract. This article provides general information about the phonetics department. The goals and tasks of teaching the phonetics department are explained. An opinion was expressed that the use of interactive methods in teaching the subject to students helps students to think independently and take a new approach.

Keywords: Phonetics, sound, syllable, stress, vowel sounds, horizontal position of the tongue, "Venn diagram", "Cluster".

СОВРЕМЕННЫЕ МЕТОДЫ ПРЕПОДАВАНИЯ КАФЕДРЫ ФОНЕТИКИ

Аннотация. В данной статье представлены общие сведения о кафедре фонетики. Объяснены цели и задачи преподавания кафедры фонетики. Высказано мнение, что использование интерактивных методов в преподавании предмета студентам помогает студентам мыслить самостоятельно и применять новый подход.

Ключевые слова: Фонетика, звук, слог, ударение, гласные звуки, горизонтальное положение языка, «диаграмма Венна», «Кластер».

Tilning barcha bo'limlari bilan uzviy, chambarchas bog'liq bo'lgan bo'limlardan biri bu fonetika. Fonetika bo'limi asosan 5-sinf dan boshlab o'tiladi. Mazkur bo'limda tovushlar tizimi o'rganiladi. Nazariy jihatdan fonetika (grekcha phone – "tovush", tike – "fan" so'zlaridan) inson nutqini ifoda qilish uchun zarur bo'lgan tovushlar va ularning vositalari haqidagi tilshunoslik sohasidir.¹ Fonetika bo'limida tovushlarning hosil bo'lish o'rniga ko'ra turlari, bo'g'in, urg'u o'rganiladi.

Fonetikada nutq tovushlari 4 tomondan o'rganiladi:

1) nutq organlarining nutq tovushlarini talaffuz qilishdagi harakati, ya'ni artikulyatsiyasi o'rganiladi;

2) tovushlar qanday fizik tebranishlar natijasi ekanligi, ya'ni akustik tomonini hisobga olinadi;

3) nutq tovushlari bo'g'in, urg'u va ohangning eshituvchi tomonidan anglab his etilishi tekshiriladi;

4) nutq tovushlarining tildagi so'zlar, frazalar va gaplarni bir-biridan farqlash uchun xizmat qilishi, ya'ni fonologik tomoni o'rganiladi.²

Fonetikadan amaliyotda juda keng qo'llaniladi. Tilning tovushlar tizimini o'rganishda, chet el xalqlarining tilini o'rganishda, so'zlarni to'g'ri yozish masalasini hal etishda, tili chuchuk

bolalarning nutqini yaxshilashda fonetikadan foydalanamiz.³ Shu boisdan mazkur bo‘lim nutq rivojlanishida ham muhim hisoblanadi.

Fonetika maqsadi va vazifasi jihatidan bir nechta turlarga bo‘linadi:

– vazifasiga ko‘ra: umumiy va xususiy fonetika.

Umumiy fonetika dunyo tillariga tegishli bo‘lgan umumiy fonetik qonuniyatlarni o‘rganadi. Xususiy fonetika esa biror konkret tilga xos bo‘lgan tovushlar sistemasini o‘rganadi;

– maqsadiga ko‘ra: nazariy fonetika, amaliy fonetika, eksperimental fonetika. Nazariy fonetika ma‘lum bir tilning tovush xususiyatlarini nazariy jihatdan tasnif etadi. Amaliy fonetika esa muayyan tilning fonetik, orfoepik me‘yorlarini o‘rganadi. Ostsillograf, kimograf singari alohida apparatlar bilan (yordamida) nutq tovushlari bo‘g‘in, urg‘u va ohangdagi artikulyatsion-akustik xususiyatlarini o‘rganish eksperimental fonetikaning asosiy vazifasidir.⁴

5-sinfda fonetika bo‘limining o‘tilishi bu bolalarning boshlang‘ich o‘rta sinfdan boshlab fonetika bo‘limini yaxshi va mukammal o‘rganib olishlari nazarda tutilgan. Fonetika bo‘limining yaxshi o‘rganilishi bu keyingi bo‘limlarni o‘rganishga ham o‘z ta‘sirini o‘tkazadi. Hozirgi o‘zbek tilida 6ta unli fonemalar bor. Har bir fonema hosil bo‘lish usuliga, o‘rniga ko‘ra bo‘lib o‘rganiladi. Olti unli fonema : a,o,u,o‘,i,e.

Ular tasnifida uch holat e‘tiborga olinadi:

1.Tilning gorizontol holati:

a) til oldi: i, e, a.

b) til orqa: u, o‘, o.

eslatma: til orqa: qiliq.

Til oldi: o‘rdak, uka.

2.Tilning vertikal holati:

a) tor unli: i, u.

b) o‘rta keng unli: e, o‘.

s) keng unli: a, o.

3.Labning ishtiroki:

a) lablashgan: u, o‘,o

b) lablashmagan: i, e, a.

Yuqorida keltirilgan unli fonemasi tasnifida ko‘rishimiz mumkinki, har bir tovush har tomonlama tahlil qilib, o‘rganilib keladi.⁵

Har bir so‘zni hosil bo‘lishida unli tovushlar alohida ahamiyat kasb etadi. So‘zda unli harf bo‘lmasa, sizni hosil qilish imkonsiz. Unli tovushlar urg‘u qo‘yishda va bo‘g‘in ko‘chirishda ham ishtirok etadi. Fonetika bo‘limidan unli tovushlarning qo‘llanilishini o‘rganishda “Venn diagrammasi”, “Klaster” interfaol ta‘limiy metodlardan foydalanishimiz mumkin.

“Venn diagrammasi”dan asosan barcha mavzularni o‘qitishda foydalanishimiz mumkin. “Venn diagrammasini” qo‘llashda sinf doskasidan yoki qo‘g‘ozdan foydalanamiz. Bunda unli tovushlarning hosil bo‘lish holatiga ko‘ra birlashtiruvchi va farqli tomonlarini ifodalashimiz mumkin.

Masalan, “a” va “o” unlisini birlashtiruvchi belgi bu ikkisi ham til tovushlari, tilning gorizontol holatiga kirsa, farqlovchi tomoni esa “a” til oldi tovushi, “o” til orqa unlisi hisoblanadi. Shu tariqa unli tovushlarni o‘rganishda “Venn diagrammasi”dan foydalanamiz.

Fonetika bo‘limini o‘rganishda “Klaster” usuli ham yaxshi natija beradi. “Klaster” usulidan asosan mavzuni umumlashtirishda, ma’lumotlar jamlashda, mavzuni yanada kengroq tushunishda, mavzu mohiyatini ochishda foydalanamiz. Bu metod yordamida o‘quvchi bilan yakka tartibda yoki jamoaviy ishlash mumkin.

Fonetika bo‘limi mavzusidan “Klaster” tuzishda doska yoki qog‘ozdan foydalanamiz. Qog‘oz o‘rtasiga kerakli kalit so‘zni "Fonetika" so‘zini kiritamiz. O‘quvchilar darsda olgan bilimlari asosida fonetika bo‘limiga nimalar kirishini yozishadi va sterelka bilan “bosh” kalit so‘zga birlashtirishadi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, fonetika bo‘limining o‘rganilishi mavzu bo‘yicha o‘quvchilarning tushunchalarini aniqlashda, ularning o‘z bilimlarini boyitishga, oshirishga yordam beradi. Shuningdek, ularga mavzuga oid ma’lumotlar beriladi. Interfaol metodlardan foydalanish ta’lim-tarbiya sifatini yaxshilashga, samaradorligini oshirish va ro‘yobga chiqarishda katta amaliy yordam beradi.

REFERENCES

1. Abduzohur Abduazizov. Tilshunoslik nazariyasiga kirish. Toshkent – 2010
2. Xolbayeva Shahnoza. 5-SINF O‘QUVCHILARI UCHUN "FONETIKA BO‘LIMINING O‘RGANILISHI". Maqoladan.
3. Xolbayeva Shahnoza. 5-SINF O‘QUVCHILARI UCHUN "FONETIKA BO‘LIMINING O‘RGANILISHI". Maqoladan.